

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish.....	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi.....	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli.....	302
M.Nasritdinova	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni.....	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni.....	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli.....	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes.....	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf.....	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari.....	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 811.111'37:008:343

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "JINOYAT" SEMANTIK MAYDONI**СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ "ПРЕСТУПЛЕНИЯ" В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****THE SEMANTIC FIELD OF "CRIME" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES****Ismoilova Diloromxon Rustamjon qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, "Ingliz filologiyasi kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya

Tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarda o'rganilayotgan obyektga nisbatan tizimli yondashuv tilga yaxlit bir makrosistema sifatida qarash va til birliklarini turli mazmuniy guruhlariga ajratib, bu guruhlardagi lisoniy birliklarning umumiy va xususiy jihatlarini tahlil qilishga imkon yaratadi. Lingvistik maydon nazariyasi bo'yicha jahon tilshunosligida qator ishlar amalga oshirilgan. Shunday bo'lsa-da, maydon ta'rifi, uning tuzilishi va turlari bo'yicha hali o'z yechimini topmagan masalalar mavjud. Tilshunoslar tomonidan semantik maydon, leksik maydon, lingvistik maydon terminlarining baravar qo'llanilishi shunday muammolar natijasi hisoblanadi. Ushbu maqolada maydon nazariyasining turli lingvistik xususiyatlari, jumladan, "jinoyat" semantik maydoni tarkibi va undagi komponentlarning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Bugunga qadar "jinoyat" semantikasining ifodalanishi tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning aksariyati bir til doirasida bajarilgan bo'lib, chog'ishtirma aspektidagi ishlar kam sonni tashkil etadi. Mazkur maqolada "jinoyat" semantikasining ifodalanishi maydon metodi asosida qiyosiy-chog'ishtirma usulda tadqiq etilgan.

Аннотация

Системный подход к объекту исследования в лингвистических исследованиях позволяет рассматривать язык как целостную макросистему, разделять языковые единицы на различные содержательные группы и анализировать общие и специфические стороны языковых единиц в этих группах. В мировой лингвистике выполнен ряд работ по теории языкового поля. Тем не менее, до сих пор остаются нерешенными вопросы, касающиеся определения месторождения, его структуры и типов. Результатом таких проблем является одновременное использование лингвистами терминов семантическое поле, лексическое поле и лингвистическое поле. В данной статье анализируются различные лингвистические особенности теории поля, в том числе состав семантического поля «преступление» и взаимосвязи его компонентов. На сегодняшний день большая часть работ, посвященных изучению выражения семантики «преступления», выполнена в рамках одного языка, а в гибридном аспекте работ немного. В данной статье выражение семантики «преступления» исследуется сравнительно-сопоставительным методом, основанным на полевом методе.

Abstract

A systematic approach to the object of study in the researches in linguistics makes it possible to look at the language as a whole macro-system and to divide language units into different substantive groups and to analyze the general and specific aspects of linguistic units in these groups. A number of works have been carried out in world linguistics on the theory of the linguistic field. Nevertheless, there are still unresolved issues regarding the definition of the field, its structure and types. The simultaneous use of the terms semantic field, lexical field, and linguistic field by linguists is the result of such problems. This article analyzes various linguistic features of field theory, including the composition of the semantic field "crime" and the interrelationships of its components. To date, most of the works devoted to the study of the expression of the semantics of "crime" have been carried out within the framework of one language, and there are few works in the hybrid aspect. In this article, the expression of the semantics of "crime" is researched in a comparative-contrastive method based on the field method.

Kalit so'zlar: lingvistik maydon, maydon elementlari, markaziy va chekka elementlar, semantik munosabat, jinoyat semantikasi

Ключевые слова: семантическое поле, элементы поля, центральные и периферийные элементы, семантическая связь, семантика преступления.

Key words: semantic field, field elements, central and peripheral elements, semantic relationship, crime semantics

KIRISH

Jahon miqyosida huquqshunoslik hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi sababli qonun tilini ham sistema sifatida o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Tilga muayyan sistemalardan tuzilgan makrosistema sifatidagi yondashuv, til birliklarini onomasiologik planda tadqiq qilish, qardosh bo'lmagan tillardagi muayyan sistema elementlarini shakl va mazmun jihatdan qiyoslash asosida o'rganishni taqozo etadi. Xususan, jinoyatga doir leksika, jinoyat ma'nosiga ega termin va iboralar har bir til lug'at fondida salmoqli o'rin tutadi. Jinoyat semantikali lug'aviy birliklarning o'zaro munosabatlarini o'rganish va mazkur paradigmadagi o'ziga xos jihatlarni belgilash – sud lingvistikasi, sotsiolingvistika, pragmalingvistika va lingvokulturologiya rivojida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida turli tizimli tillarda, jumladan, ingliz va o'zbek tillaridagi jinoyat tushunchasi turli sath birliklari orqali ifodalanadi va yaxlit bir semantik maydonni tashkil etadi. Qardosh bo'lmagan mazkur tillardagi "jinoyat" semantik maydonining qamrovi, unga birikuvchi lingvistik birliklarning to'liq qatori shakllantirilmagan. Bugungi kunda "jinoyat" semantikasini ifodalovchi lisoniy vositalarni sathlararo, muayyan mikromaydonlarga biriktirgan holda o'rganish, ularning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini chog'ishtirish asosida tahlil qilish, jinoyat semantik maydoni komponentlarining lingvomadaniy jihatdan farqlanishi va muqobilsiz leksik birliklarni aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvistik maydon va uning tabiatini ochib berishga bo'lgan qiziqish XX asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, G.Ipsen, Y.Trir, V.Porsig, S.Ohman, S.Ullman, L.Vaysgerber, A.Lehrer, J.Layons singari jahon tilshunoslari maydonga murakkab lingvistik hodisa sifatida yondashib, uning ichki tuzilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Maydon nazariyasini taraqqiy etishida rus tilshunoslari E.Guliga, E.Shendels, M.Guxman, G.Shur, L.Vasilyev, A.Bondarkolar ma'lum qilgan maydon komponentlarining tabiatiga oid ilmiy xulosalari e'tiborga molikdir. O'zbek tilshunosligida tilning sistemaviylik tabiati, lingvistik maydon nazariyasining ildizlari, ichki strukturasi, turlari va ularning o'ziga xosliklari I.Qo'chqortoyev, T.Mirzaqulov, N.Nishonova, H.Hojiyeva, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, Sh.Rahmatullayev, A.Sobirov, A.Rasulova, L.Elmuradova, F.Safarov, Sh.Shokirovlarning ilmiy tadqiqotlarida ma'lum miqdorda o'z yechimini topgan.

Ingliz tilida I.Lengford "jinoyat" semantikasining ifodalanishini monografik asosda tadqiq qilib, "jinoyat" semantikali leksik birliklarning umumiste'molda va huquqiy diskursdagi mushtarak hamda farqli ma'no ottenkalarini aniqlagan. [7,28] M.Axunov turli tizimdagi tillarda "jinoyat" konsepti voqelanishining lingvokognitiv xususiyatlarini va jinoyat-gunoh tushunchalarini o'zaro bog'liqlikda tahlilga tortgan.[9,8] Jinoyatga doir terminologiya masalalarini M.Qosimova, Sh.Ko'chimov, G.G'ulomova, F.Abdullayeva va Q.Mo'ydinovlarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jinoyat – qonunga zid, javobgarlikka tortishni talab qiladigan xatti-harakat bo'lib, o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham salbiy ma'no ottenkasiga ega tushunchadir. Uning semantik ifodalovchilari har bir til qatlamining salmoqli qismini egallaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi "jinoyat" semantik maydonining tarixiy ildizlari mustahkamligi bilan birga, raqamli texnologiyalar, internet, media mahsulotlaridagi innovatsiyalar sababli taraqqiy etayotgan sistemadir.

"Jinoyat" semantik maydoni uchta mikromaydonga bo'linadi. Ingliz va o'zbek tillarida "jinoyat" semantik maydonini tashkil etuvchi "insoniyatga qaratilgan jinoyatlar", "tabiiy muhit, mulkka qaratilgan jinoyatlar" hamda "til vositasida sodir bo'ladigan jinoyatlar" kabi mikromaydonlari o'z navbatida 14 ta kichik guruhlariga ajraladi. Maydon undagi uzvlar o'zaro semantik aloqaga kirishuvchi ochiq, mustaqil va barqaror mikrosistemadir.

Ingliz tilidagi "jinoyat" semantik maydoniga birikuvchi leksik birliklar miqdoran ko'p hisoblanadi. Mazkur xulosani semantik maydon ichidagi leksik bo'shliqlar tasdiqlaydi. Xususan, ingliz tilidagi "jinoyat" ma'nosiga ega *red collar crime*, *urban crime*, *uxoricide* kabi mamlakatning huquq tizimi va xalq mentaliteti bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarning o'zbek tilida muayyan leksik bo'shliqlar hosil qiladi. "Ko'pchilikka qaratilgan jinoyatlar" kichik maydoniga so'nggi yillarda qo'shilgan komponent sifatida *hijacking* leksemasi harakatlanayotgan transportni qo'lga olish jinoyatini anglatadi. Bosqichli tahlil tamoyiliga asoslanib, *hijacking* sistemasi ichida ma'lum

farqlovchi semalarga ega uzvlardan tashkil topgan kichik guruh shakllangan. Mazkur guruhga *airplane hijacking*, *sea piracy* va *carjacking* komponentlari mansub bo'lib, har biri "transport o'g'riligi" semasi bilan integrallashadi va havo, quruqlik va suv transporti differensial semalariga ko'ra o'zaro zidlov munosabatiga kirishadi. Keyingi bosqichda *airplane hijacking* bir butun sifatida o'zaro sinonimlik munosabatlariga ega *skyjacking*, *air robbery*, *air piracy*, *aircraft highjacking* uzvlaridan iborat leksik qatorga ajratiladi. Mazkur jinoyatni sodir etgan shaxs *hijacker*, *highjacker*, *highwayman*, *road agent*, *padder*, *holdup man*, *stickup man* leksemalari orqali verballashadi. Bunda *highwayman*, *padder* tarkibida "piyoda" semasi bilan, *holdup man*, *stickup man* esa "qurol bilan" semalari orqali farqlansa, "mashinani kuch bilan tortib olmoq" semasi ostida jipslashadi.

O'zbek tilida mazkur jinoyatni anglatuvchi tushunchalar orasida *highway robbery* – *qaroqchi*, *yo'ltosar* sifatida verballashadi. Paradigmadagi boshqa elementlarning o'zbek tilidagi muqobili yo'qligi mikromaydondagi leksik bo'shliq mavjudligini anglatadi. Amerikalik detektiv asarlar yozuvchisi Robert Fishning "Hijack" nomli hikoyasi o'zbek tiliga "Samolyotdagi o'g'rilik" sifatida tarjima qilingani ham fikrimizni isbotlaydi. Vaholanki, ushbu usuldagi tarjima mukammal emas va *kemadagi o'g'rilik*, *mashinadagi o'g'rilik* tarzida qo'llash muayyan semantik g'alizliklarga olib keladi.

Yuridik diskursda mazkur jinoyat umumiy tarzda *temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini*, *havo*, *dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish* [1] tarzida nominatsiyalanadi.

Yo'q, yo'q, bu shunchaki bezorilik emas, – shosha-pisha gapirdi styuardessa, go'yo noto'g'ri tushunishlaridan cho'chiganday. – Bu – o'g'rilik! (Robert Fish. "Samolyotdagi o'g'rilik").[8, 3]

Tahlillardan ayon bo'ladiki, muayyan jinoyat turining nomlanishi eng avvalo shu til egalarining undan foydalanish ehtiyojiga asosan yuzaga keladi. Millatimiz bosib o'tgan tarixiy jarayonlarda va, qolaversa, so'nggi yillarda havo yo'llari bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmaganligi bois ham bu jinoyat turini nominatsiyalash amalga oshirilmagan deya ayta olamiz.

O'zbek tilidagi "til vositasida sodir etilgan jinoyatlar" kichik maydonida "tahdid" semasini tashuvchi leksemalar ingliz tilidagidek leksik rang-baranglikka ega emas. Sababi, shu turkum leksemalar (do'q qilish, do'q, po'pisa, qo'rqituv, dag'dag'a, dahshatga solish) oddiy so'zlashuv nutqida ko'p ko'zga tashlansa-da, ularning jinoyat ma'nosi huquqiy hujjatlarda o'z isbotini topmagan. Ingliz tilida *threatening* jinoyat ma'nosiga ega mustaqil leksema hisoblangani kabi, o'zbek tilida ham "qo'rqitish" leksemasi alohida bir jinoyat turini anglatadi. Bosh qonunimizda unga "jismoniy va ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashlarni qo'llash bilan qo'rqitish" mazmunidagi ta'rif berilgan bo'lsa, izohli lug'atda aynan jinoyatning til vositasida sodir etilish xususiyatiga urg'u beruvchi "biror shaxsga yoki ijtimoiy manfaatlariga og'zaki, yozma yoki boshqa usullar bilan ... ziyon yetkazish niyatini ifoda etish" qo'shimcha semasi ham mavjud. Qolaversa, o'zbek tilida *qo'rqitish* semasi turli jinoyatlarning semantik mundarijasida namoyon bo'ladi. Ular kengaygan birikma shaklidagi elementlar hisoblanib, "til vositasidagi jinoyatlar" mikromaydoni uchun chekka a'zo hisoblanadi. *O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish*, *o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish*, *boshliqni qo'rqitish* shular jumlasidandir.

Jinoyat olamidagi yana bir "yosh" jinoyat turlaridan biri *defamation* bo'lib, 1980-yillardan boshlab til vositasidagi jinoyat sifatida oydinlik kiritishga urinish boshlandi. Undan avval esa *defamation*ni nutqiy aktlar nazariyasi, diskursiv tahlil va pragmatika qonuniyatlari asosida o'rganilishga e'tibor qaratilgan.

Defamation o'zga shaxslarning ijtimoiy mavqeiga va jamiyatdagi hurmatiga putur yetkazish maqsadida turli obro'sizlantiruvchi, uydirma ma'lumotlar berishdir. [10] Bugungi kunda *defamation* ijtimoiy tarmoqlarda keng ildiz otib bormoqda. Uning bosh mohiyati til orqali amalga oshirish bo'lgani bois, mazkur jinoyat "til vosida sodir etiladigan jinoyatlar" mikromaydonining markaziy uzvi hisoblanadi. Agar *defamation* ijtimoiy tarmoqlarda va internet saytlarida ham tarqalsa, unda "internet bilan bog'liq jinoyatlar" yoki ushbu jinoyat xotin-qizlarga nisbatan sodir etilsa, ushbu semik belgi bilan "gender asosdagi jinoyatlar" mikromaydonlarining chekka a'zolari hisoblanadi.

Bir maydon uzvi boshqa bir maydonning ham a'zosi bo'la olish xossasi *bribery* leksemasi uchun ham xosdir. *Bribery* leksemasi mazmuniy tarkibida aksar hollarda "yuqori lavozimdagi shaxslar tomonidan bajarilish" semasi mavjudligi bois, u "*mansabdor shaxslar jinoyati*" kichik maydoniga ham tegishlidir. Ushbu leksemaning semantik strukturasi jinoyatchilarning muloqotidan ko'ra, ularning kasblarini suiste'mol qilish semasi yuqori bo'lganligi bois ham *bribery*

ILMIY AXBOROT

“til vositasidagi jinoyatlar” maydonining chekka elementi, “mansabdor shaxslar jinoyati” kichik maydonining esa yadro elementi sanaladi.

*They offered \$4,000 in cash and the car they were driving as a **bribe** to the cops who stopped them with \$10000 to follow with one condition.* [6, 102]

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, “jinoyat” semantik maydoni tarkibi chog‘ishtirilayotgan tillarda doimiy o‘zgarish tabiatiga ega. Inson, jamiyat, fan-texnika rivojlanib borgan sari, jinoyta turlari ham o‘zgarib boradi. Bu esa, jinoyat semantikali terminlar va so‘z, iboralarning ba‘zilari arxaizmga aylanishiga olib keladi. Shuningdek, “jinoyat” ma‘nosiga ega terminlar huquqiy terminosistemaning bir qismi sifatida emotsional bo‘yoqlardan xoli bo‘lib, rasmiylik va bir monosemantik tabiatiga ega.

“Jinoyat” semantikasini ifodalovchi terminlar *faqatgina huquqshunoslik sohasiga tegishli shaxslar nutqida, tor doirada qo‘llaniluvchi terminlar va umumxalq nutqida ham teng tarzda ishlatiluvchi terminlar* nomli ikki guruhga bo‘linadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi jinoiy harakatni, jinoyatchini ifodalovchi leksemalar bir paytda umumiste‘moldagi so‘z yoki huquqiy atama bo‘la oladi.

Jinoyat semantikasini anglatuvchi turg‘un birikmalar komponentlarining aksariyatini tarixiy voqealar, diniy tushunchalar yoki toponimlar tashkil etgani sababli, ularda o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlar ko‘zga tashlanadi va ular muqobilsiz leksika hisoblanadi. Ular o‘rtasida o‘zaro ma‘nodoshlik, zidlov va darajalanish munosabatlari keng tarqalgan.

Jinoyat olamiga xos harakatlarni voqelantiruvchi ba‘zi frazeologik birliklar (put somebody foot wrong – oyog‘ini qing‘ir bosmoq, eye for an eye/tooth for a tooth – qonga qon, jonga jon, cover the track – jinoyat izini yashirmoq, lie under the oath – qasamini buzmoq, armed to the teeth – tish-tirnog‘igacha qurollangan)da o‘zaro mushtaraklik kuzatiladi va ular o‘zaro muqobil frazeologizmlar hisoblanadi. Ingliz tilidagi jinoyat semantikali turg‘un birikmalar orasida muallifi aniq bo‘lgan iboralar ko‘p sonni tashkil qilsa, bu xususiyat o‘zbek tilidagi barqaror birikmalarga xos emas.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat kodeksi”. 264-modda; <https://lex.uz/acts/-111453>.
2. Aas. K.F. Globalization and crime. – Sage: London, 2007. – 1304 p.
3. Berlin B., Kay P. Basic color terms. Berkeley, University of California Press, 1991. – 196 p.
4. Cabre M., Sager J. Terminology: theory, methods, and applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 247 p.
5. Coulthard M., Johnson A. An introduction to forensic linguistics: language in evidence. – Tylor and Francis e-library, 2007. – 270 p.
6. Chris M. Pirates in Blue. National Association of Chiefs of Police, 1996. – 282 p.
7. Langford I. The semantics of crime: A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy. – Australian national university, 2002. – 415 p.
8. Robert F. Samolyotdagi o‘g‘rilik. Ziyo, 2020. – 60 b. (Robert F. Hijack. Ziyo, 2020. – 60 p)
9. Ахунов М.М. Оламнинг лисоний манзарасида “жиноят” концептининг ўрни. Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Андижон, 2022. – 54 б. (Akhunov M. The role of the concept of "crime" in the linguistic scenery of the world. Abstract of PhD dissertation. – Andijan, 2022. – 54 p)
10. <https://dictionary.law.com/default.aspx?selected=458>